

TIL - TAFAKKUR VA TARAQQIYOT MEZONI.

*Samarqand viloyat Bulung'ur tuman**34-maktab o'qituvchisi***Meliboyeva Dilbar Nazarovna**

Annotatsiya: Mazkur maqolada, til, tafakkur va taraqqiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik borasida so'z yuritiladi. Til inson tafakkurining ifoda vositasi bo'lib, tafakkur esa tilning mazmuniy asosini tashkil etadi. Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, uning til madaniyati, fikrlash darajasi va muloqot sifati bilan belgilanadi. Shu bois tilni rivojlantirish, tafakkurni boyitish va ilmiy-ma'naviy yuksalishni ta'minlash taraqqiyot mezonlaridan biri hisoblanadi. Maqolada tilning milliy o'zlikni saqlash, tafakkurni shakllantirish va ijtimoiy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xorijiy, til o'rganish, lingvistik kompetensiya, kommunikativ yondashuv, globallashuv, madaniyatlararo muloqot, ta'lim sifati, kasbiy rivojlanish, metodika.

Xorijiy tilni o'rganish bugungi globallashuv davrining eng dolzarb ehtiyojlaridan biridir. Jahon miqiyosida axborot oqimii twezlashib bborayotgan, ilmfan va texnologiya mislsiz sur'atlarda rivojlanayotgan bir paytda chet tillarini bilish, shaxsning intellektual salohiyatini oshiruvchi, uning kasbiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi va ijtimoiy faolligini mustahkamlovchi muhim omil sifatida namayon bo'lmoqda. Til faqat muloqot vositasi bo'lib qolmay, balki inson tafakkurining shakllanishi, dunyoqarashning kengayishi va madaniyatlararo aloqalarning mustahkamlanishida ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda xorijiy tilni bilish ta'lim, ilmiy-tadqiqot, diplomatic munosabatlar, iqtisodiyot, turizm, axborot texnologiyalari hamda xalqaro hamkorlik sohalarida keng imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli til o'rganish jarayonini faqatgina so'z yodlash yoki Grammatik qoida o'zlashtirish bilan cheklash mumkin emas. U murakka, bosqichma-bosqich kechadigan, amaliy mashq, tahlil eshitish, o'qish, yozish va so'zlash ko'nikmalarining uyg'un rivojlanishini talab qiladigan tizimli jarayondir.

Xorijiy tilni o'rganish insonning tafakkur olamiga yangiufqlar ochadi. Tilorqali shaxs nafaqat yangi leksik birliklar va Grammatik strukturalarni egallaydi, balki boshqa bir millatning madaniyati, qadriyati, tarixiy xotirasiva ijtimoiy tafakkuri bilan ham tanishadi. Shu ma'noda til o'rganish – bu faqat lingvistik faoliyat emas, balki madaniy-ma'naviy jarayondir. Har bir til o'zida muayyan xalqning ruhini, dunyoni tark etish uslubini va hayotda munosabatini aks ettiradi.

Ilmiy adabiyotlarda xorijiy tilni o'rganishning samaradorligi ko'pincha kommunikativ yondashuv, faol muloqot, kontekstual o'rganishva mustaqil mashq

bilan izohlanadi. Zamonaviy metodikaga ko'ra tilni o'rganishda barcha nutqiy faoliyat turlari – tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish- bir-biri bilan uzviy bog'liq holda shakllantirilishi lozim. Faqat shu holdagina o'rganuvchi tilni nazariy jihatdan emas, balki amaliy darajada ham egallay oladi.

Xorijiy tilni muvaffaqiyatli o'rganish uchun muntazamlik muhim ahamiyatga ega. Til- vaqt va takror orqali mustahkamlanadigan ko'nikma. Kunlik mashg'ulotlar, matn tahlili, audiomateriallar bilan ishlash, dialoglar tuzish, yozma topshiriqlar bajarish va so'z boyligini kengaytirish orqali o'rganuvchi asta-sekin mustaqil fikr bildirish darajasiga yetadi. Bu jarayonda motivatsiya, maqsadning aniqligi va o'z ustida ishlash intizomi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuningdek, xorijiy tilni o'rganishning psixologik jixatlari ham mavjud. ba'zi o'rganuvchilarda xato qilishdan qo'rqish, nutqiy to'siq, ishonchsizlik va sustlik kuzatilishi mumkin. Bunday holatlarni bartaraf etishda qo'llab-quvvatlovchi muhit, ijobiy rag'bat va bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi topshiriqlar katta yordam beradi. Til-o'rganishda xato- muvaffaqiyatsizlik emas, balki rivojlanishning tabiiy bosqichidir. Shu bois o'qituvchi va o'rganuvchi o'rtasidagi samarali hamkorlik ta'lim jarayonining sifatini oshiradi.

Hozirgi davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xorijiy til o'rganish jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kirdi. Electron darsliklar, online platformalar, audio va videoresurslar, viryual muloqot maydonlariva interaktiv testlar o'rganuvchining mustaqil bilim olishiga qulay sharoit yaratadi. Bunday vositalar nafaqat o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi, balki uning samradorligini ham oshiradi. Ayniqsa, masofaviy ta'lim sharoitida bu imkoniyatlar juda muhim hisoblanadi.

Xorijiy tilni bilish shaxsning kasbiy raqobatdoshligini ham oshiradi. Bugungi mehnat bozorida chet tilini biladigan mutaxassislar ko'proq talab etiladi. Bu ayniqsa xalqaro kompaniyalar, ta'lim muassasalari, turizm sohasi, diplomatic xizmat,tarjimonlik, jurnalistikava ilmiy faoliyatda yaqqol namoyon bo'ladi. Til bilish orqali inson nafaqat ish toppish imkoniyatini kengaytiradi, balki o'z kasbiy faoliyatida yangiliklarni tez o'zlashtiradi va xalqaro tajribadan foydalana oladi.

Xorijiy tilning ijtimoiy ahamiyati ham katta. U insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, turli xalqlar o'rtasida o'zaro tushunish va hurmatni kuchaytiradi. Til bilgan shaxs boshqalar bilan samarali muloqot qila oladi, axborotni to'g'ri qabul qiladi va o'z fikrini aniq ifodalaydi. Bu esa fuqarolik madaniyati, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismlaridn biridir.

Xulosa qilib aytganda,xorijiy tilni o'rganish shaxsning intellectual, madaniy va kasbiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Til bilish insonni keng tafakkurli, mustaqil fikrlovchi, zamonaviy bilimlarga ochiq va xalqaro maydonda faol bo'lishga tayyor shaxs sifatida shakllantiradi. Xorijiy til faqat aloqa vositasi emas, balki taraqqiyotga

eltuvchi vosita, ilmiy izlanishlar kaliti va madaniyatlararo muloqotning mustahkam poydevoridir.

Shu nuqtai nazardan, til o'rganishda tizimli yondashish, zamonaviy metodlardan foydalanish, muntazam mashq qilish va amaliy faoliyatni kuchaytirish bugungi kun talabi hisoblanadi. Har bir inson xorijiy tilni egallash orqali o'z imkoniyatlarini kengaytirishi, dunyo bilan teng muloqotga kirishishi va kelajak sari ishonch bilan qadam qo'yishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat.
2. A. G'afurov. Chet tillarini o'qitish metodikasi. Toshkent 2014y.
3. M. Jo'rayev. Til o'rganish metodikasi. Toshkent 2020.
4. R. Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. Fan. 2024y.
5. J.C. Richards.T.S. Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
6. J. Harmer. The practice of English language teaching. Pearson.2025
7. S. Thornbury. How to teach vocabulary?. Pearson.2025y.
8. H. D. Drown. Principles of language learning and teaching. Pearson 2000y
9. S. D. Krashen. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon. 2022y.
- 10.T. Hedge. Teaching and learning in the language classroom. Oxford University Press. 2023y.